

## IJTIMOIOY TURIZM FAOLIYATINI TASHKIL ETISH YONDASHUVLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

**Rasulov Sherzod Ashirovich**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti,  
katta o'qituvchi, PhD

ORCID: 0009-0005-3118-9031

### Annotatsiya

Mazkur maqolada ijtimoiy turizm faoliyatini tashkil etish jarayonlariga xos yondashuvlar hamda ularning nazariy va amaliy xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda ijtimoiy turizmning turizm tizimidagi o'rni, uni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari hamda faoliyatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi asosiy subyektlar o'rganilgan. Ilmiy manbalar asosida ijtimoiy turizmni tashkil etishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, nodavlat tashkilotlari ishtiroki, tadbirkorlik faoliyati, loyihaviy va innovatsion yondashuvlari tizimli tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy turizmni rivojlantirish turizm infratuzilmasidan samarali foydalanish, ichki turizm oqimlarini rag'batlantirish hamda aholining turistik xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy turizm, turizm tizimi, turizm xizmatlari, ichki turizm, turizm infratuzilmasi, turizm siyosati, turizmni rivojlantirish, innovatsion yondashuvlar.

### Аннотация

В статье рассматриваются подходы к организации социального туризма и их теоретические и практические особенности. В исследовании проанализированы роль социального туризма в системе туризма, организационные механизмы его развития и основные участники данной деятельности. На основе научных источников системно изучены основные подходы к организации социального туризма, включая государственную поддержку, участие негосударственных организаций, предпринимательскую деятельность, проектные и инновационные механизмы. Результаты исследования показывают, что развитие социального туризма способствует более эффективному использованию туристской инфраструктуры, стимулированию внутреннего туризма и расширению возможностей населения пользоваться туристскими услугами.

**Ключевые слова:** социальный туризм, система туризма, туристские услуги, внутренний туризм, туристская инфраструктура, туристская политика, развитие туризма, инновационные подходы.

### Abstract

This article examines the approaches to organizing social tourism and their theoretical and practical characteristics. The study analyzes the role of social tourism within the tourism system, the organizational mechanisms of its development, and the main stakeholders involved in this activity. Based on scientific sources, the key approaches to organizing social tourism are systematically analyzed, including state support, the participation of non-governmental organizations, entrepreneurial

initiatives, as well as project-based and innovative mechanisms. The findings indicate that the development of social tourism contributes to more efficient use of tourism infrastructure, stimulation of domestic tourism, and expansion of public access to tourism services.

**Keywords:** social tourism, tourism system, tourism services, domestic tourism, tourism infrastructure, tourism policy, tourism development, innovative approaches.

## KIRISH

Turizm iqtisodiyotning muhim xizmat tarmoqlaridan biri sifatida mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida alohida o‘rin egallaydi. Turizm faoliyati hududlarning iqtisodiy faolligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, xizmatlar bozorini kengaytirish hamda aholi farovonligini yaxshilashga xizmat qiladigan samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, turizm nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini ta‘minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Turizm tizimining barqaror rivojlanishi turistik xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi bilan uzviy bog‘liqdir. Bunda aholining turli ijtimoiy qatlamlari uchun sayohat qilish imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy turizm turizm tizimining ijtimoiy yo‘naltirilgan muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Ijtimoiy turizm faoliyati turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta‘minlash, aholining dam olish va sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash hamda turizm infratuzilmasidan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy turizmning rivojlanishi turizm tizimining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash bilan birga, turistik xizmatlarning ijtimoiy ahamiyatini ham kuchaytiradi. Mazkur faoliyat orqali turizm infratuzilmasi yil davomida barqaror ishlashi ta‘minlanadi, ichki turizm oqimlari kengayadi hamda turizm xizmatlari bozorining diversifikatsiyasi yuzaga keladi. Shu jihatdan ijtimoiy turizmni rivojlantirish turizm sohasining iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan birga, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun turistik xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Ijtimoiy turizm faoliyatini samarali tashkil etish masalalari ilmiy adabiyotlarda turli nazariy yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Ushbu yondashuvlar turizm faoliyatining tashkiliy mexanizmlari, moliyalashtirish manbalari hamda jarayonda ishtirok etuvchi subyektlarning o‘zaro hamkorligi bilan tavsiflanadi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, nodavlat tashkilotlari va xayriya fondlari ishtiroki, tadbirkorlik faoliyati hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish ijtimoiy turizmni rivojlantirishning muhim omillari sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi turizm tizimining samaradorligini oshirish va turizm xizmatlarining ommalashuviga xizmat qiladi.

Mazkur masalaning dolzarbligi shundan iboratki, ijtimoiy turizm faoliyatini tashkil etish jarayonlarini ilmiy jihatdan o‘rganish turizm tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni aniqlash imkonini beradi. Ijtimoiy turizmni rivojlantirish orqali turizm infratuzilmasidan

foydalanish darajasi oshadi, ichki turizm faoliyati kengayadi hamda turistik xizmatlar bozorining ijtimoiy yoʻnaltirilganligi mustahkamlanadi.

Shu nuqtai nazardan ijtimoiy turizm faoliyatini tashkil etish jarayonlarini oʻrganish, mavjud yondashuvlarni tizimli tahlil qilish hamda ularning amaliy xususiyatlarini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot ijtimoiy turizm faoliyatini tashkil etishning asosiy yondashuvlarini aniqlash, ularning oʻziga xos xususiyatlarini tahlil qilish hamda turizm tizimida ijtimoiy turizmning rivojlanish yoʻnalishlarini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan.

## **METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqot ijtimoiy turizm faoliyatini tashkil etish jarayonlari, ularning tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari hamda rivojlanish yoʻnalishlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi turizm iqtisodiyoti, ijtimoiy siyosat va xizmatlar bozorining rivojlanishiga oid ilmiy yondashuvlarga tayangan holda shakllantirildi. Ushbu metodologik yondashuv ijtimoiy turizm tizimini turizm sohasining tarkibiy elementi sifatida oʻrganish hamda uning rivojlanish omillarini kompleks tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning bir qator usullaridan foydalanildi. Avvalo, tahlil va sintez metodlari yordamida ijtimoiy turizm faoliyatiga oid nazariy manbalar, xalqaro tajribalar hamda turli tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar oʻrganildi va umumlashtirildi. Ushbu jarayon ijtimoiy turizmni tashkil etishning asosiy yondashuvlarini aniqlash hamda ularning mazmuniy jihatlarini tizimlashtirishga xizmat qildi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali ijtimoiy turizm faoliyatini tashkil etishning davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashga asoslangan, nodavlat tashkilotlari ishtirokidagi, tadbirkorlikka asoslangan hamda innovatsion texnologiyalarni qoʻllashga yoʻnaltirilgan yondashuvlari oʻzaro solishtirildi. Shu bilan birga, tasniflash va guruhlash usullari yordamida mazkur yondashuvlarning asosiy xususiyatlari jadval koʻrinishida tizimlashtirildi hamda ularning ijtimoiy turizm faoliyatidagi oʻrni aniqlandi.

Tadqiqotda tizimli yondashuvdan ham foydalanilib, ijtimoiy turizm faoliyati turizm tizimining tarkibiy qismi sifatida koʻrib chiqildi. Mazkur yondashuv ijtimoiy turizm faoliyatida ishtirok etuvchi subyektlar, moliyalashtirish manbalari hamda tashkiliy mexanizmlar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni aniqlash imkonini berdi.

Qoʻllanilgan metodologik yondashuvlar ijtimoiy turizm faoliyatini tashkil etish jarayonlarini tizimli tahlil qilish, uning rivojlanishiga taʼsir etuvchi omillarni aniqlash hamda turizm tizimidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash imkonini yaratdi.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Turizm tizimining rivojlanishi global iqtisodiy jarayonlar bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, xizmatlar bozorining kengayishi ushbu sohaning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlariga yangi talablarni shakllantirmoqda. Globallashtirish jarayonlari turizm faoliyatining hududiy chegaralarini kengaytirib, turistik xizmatlar bozorini mintaqaviy va xalqaro darajada integratsiyalashgan tizimga aylantirmoqda. Shu sababli ilmiy

adabiyotlarda turizm sohasi iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralib, uning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi omillar, xususan tashkiliy, iqtisodiy va institutsional mexanizmlar keng o'rganilmoqda.

Ko'plab tadqiqotchilar turizm sohasining tashqi omillarga yuqori darajada sezgir ekanligini ta'kidlaydilar. Xususan, global iqtisodiy inqirozlar, epidemiologik vaziyatlar yoki siyosiy beqarorlik turizm tizimining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. COVID-19 pandemiyasi davrida yuzaga kelgan iqtisodiy uzilishlar turizm infratuzilmasining faoliyatini keskin cheklab qo'yganini ilmiy manbalar alohida qayd etadi. Tadqiqotlarda pandemiya davrida xalqaro turizm oqimlarining qisqarishi natijasida turizm sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlari sezilarli darajada pasaygani hamda ushbu sohaning tiklanish jarayoni murakkab kechgani ta'kidlanadi. Shu bilan birga, iqtisodiy faoliyatning inqirozdan keyingi tiklanish jarayonlari turli ssenariylar asosida amalga oshishi mumkinligi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan.

Turizm sohasining tiklanish jarayonlarini o'rganishda ichki turizmni rivojlantirish muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, kirish turizmiga yuqori darajada tayanadigan mamlakatlarda pandemiya davrida turizm tizimi jiddiy iqtisodiy yo'qotishlarga duch kelgan. Aksincha, ichki turizm salohiyati rivojlangan mamlakatlarda turizm infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlari nisbatan tezroq tiklangan. Ushbu jarayonda ijtimoiy turizm xizmatlari ichki turizm oqimlarini rag'batlantirish va turistik infratuzilmani faol holatda saqlab qolishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lgan.

Ijtimoiy turizmni tashkil etish masalalari ilmiy adabiyotlarda turli nazariy yondashuvlar asosida o'rganilgan. Tadqiqotchilar ijtimoiy turizm faoliyatini tashkil etish jarayonini davlat, nodavlat sektor hamda xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq ko'p qirrali tizim sifatida tavsiflaydilar. Ilmiy manbalarda ijtimoiy turizmni rivojlantirishning asosiy yondashuvlari sifatida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga asoslangan model, nodavlat tashkilotlari ishtirokidagi model, tadbirkorlikka asoslangan model hamda loyihaviy va innovatsion yondashuvlar ajratib ko'rsatiladi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga asoslangan yondashuv ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy turizmni rivojlantirishning muhim mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu modelga ko'ra, ijtimoiy turizm faoliyatida yuzaga keladigan xarajatlarning ma'lum qismi davlat byudjeti yoki ijtimoiy fondlar hisobidan qoplanadi. Natijada aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun sayohat imkoniyatlari kengayadi hamda turistik xizmatlarga bo'lgan talab rag'batlantiriladi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda davlatning turizm sohasini tartibga solishdagi roli muhim omil sifatida qayd etiladi.

Nodavlat tashkilotlari va xayriya jamg'armalari yordamida tashkil etiladigan ijtimoiy turizm modeli ham ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Bunday yondashuvda turizm xizmatlarining xarajatlari turli fondlar yoki xayriya tashkilotlari tomonidan qoplanadi. Bu esa turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, ijtimoiy turizmni rivojlantirishda nodavlat sektorning rolini oshiradi. Tadqiqotchilar nodavlat tashkilotlarining faoliyati ijtimoiy turizmni

rivojlantirish jarayonida turizm tashkilotlari bilan hamkorlik asosida amalga oshirilishini ta'kidlaydilar.

Ijtimoiy turizmni rivojlantirishning yana bir muhim yo'nalishi sifatida tadbirkorlikka asoslangan yondashuv ham alohida o'rganiladi. Ushbu modelga ko'ra, turistik tashkilotlar xizmatlar ko'lamini kengaytirish va diversifikatsiya qilish orqali ijtimoiy turizm faoliyatini rivojlantiradi. Turizm kompaniyalari ommaviy turistik xizmatlardan asosiy daromadni shakllantirgan holda, ayrim turistlar toifalari uchun arzonlashtirilgan turistik mahsulotlarni taklif etadilar. Bunday yondashuv turizm bozorida raqobatni kuchaytirish bilan birga ijtimoiy turizm xizmatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy turizmni rivojlantirishda loyihaviy yondashuv ham muhim o'rin egallashi ta'kidlanadi. Mazkur yondashuv doirasida ijtimoiy turizm faoliyati turli moliyaviy manbalar asosida ishlab chiqilgan loyihalarni moliyalashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunda davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar, nodavlat tashkilotlar va xayriya jamg'armalari asosiy moliyalashtirish manbalari sifatida ishtirok etadi. Turistik tashkilotlar esa ijtimoiy turizm loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy turizmni rivojlantirish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash alohida ahamiyat kasb etishi qayd etiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron marketing, onlayn bronlash tizimlari hamda geolokatsiya xizmatlarining joriy etilishi turizm xizmatlarining qulayligini oshiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar turizm tashkilotlari va turistlar o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayonini soddalashtirib, ijtimoiy turizm xizmatlarining ommalashuviga xizmat qiladi.

Ilmiy manbalarda ijtimoiy turizm konsepsiyasining turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinishi ham qayd etiladi. Ayrim tadqiqotchilar ijtimoiy turizmni kam ta'minlangan aholiga sayohat imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan tizim sifatida ko'rib chiqsalar, boshqa mualliflar uni barcha fuqarolar uchun teng turistik imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy institut sifatida baholaydilar. Ushbu yondashuvlarning umumiy jihati shundaki, ijtimoiy turizm jamiyatda ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili ijtimoiy turizm faoliyatini tashkil etish jarayoni ko'p qirrali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarga asoslanishini ko'rsatadi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, nodavlat sektor ishtiroki, tadbirkorlik faoliyati, loyihaviy moliyalashtirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish ijtimoiy turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuvlarning uyg'unligi turizm tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlab, aholining turistik xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Ijtimoiy turizm faoliyatini tashkil etish jarayonlarini tahlil qilishda turizm tizimining umumiy rivojlanish tendensiyalari, global iqtisodiy jarayonlar hamda turli

mamlakatlarda qo‘llanilayotgan tashkiliy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm sohasining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi omillar, ayniqsa global iqtisodiy inqirozlar yoki epidemiologik vaziyatlar, ushbu sohaning barqaror faoliyat yuritish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. COVID-19 pandemiyasi davrida yuzaga kelgan iqtisodiy uzilishlar turizm tizimining global risklarga sezgirligini yana bir bor namoyon etdi. Natijada turizm faoliyatini tiklash jarayonida turli iqtisodiy modellardan foydalanish zarurati yuzaga keldi.

Ilmiy adabiyotlarda inqirozdan keyingi iqtisodiy tiklanish jarayonlari bir nechta asosiy ssenariylar asosida tavsiflanadi. Ushbu ssenariylar iqtisodiy faoliyatning pasayishdan keyingi tiklanish tezligi hamda uning davomiyligi bilan farqlanadi. Inqiroz sharoitida iqtisodiy tizimlarning tiklanish trayektoriyalari quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin (1-jadval).

**1-jadval.**

**Inqiroz sharoitida iqtisodiy faoliyatni tiklash trayektoriyalari<sup>1</sup>.**

Ssenariy turi	Tavsifi
V shaklidagi tiklanish	Iqtisodiy pasayish qisqa muddat davom etib, undan so‘ng tezkor tiklanish yuz beradi.
U shaklidagi tiklanish	Pasayish davri nisbatan uzoq davom etadi va iqtisodiy faoliyat asta-sekin tiklanadi.
Cho‘ziq U shaklidagi tiklanish	Tiklanish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshadi va iqtisodiy ko‘rsatkichlar uzoq vaqt davomida past darajada saqlanib qoladi.
L shaklidagi tiklanish	Iqtisodiy pasayishdan keyin uzoq muddat davomida past darajadagi iqtisodiy faollik kuzatiladi.
W shaklidagi tiklanish	Iqtisodiy faoliyat tiklanish jarayonida qayta pasayish bosqichlarini boshdan kechiradi.

Mazkur ssenariylar turizm sohasining inqirozdan chiqish jarayonlarini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Pandemiya davrida ko‘plab mamlakatlarda turizm sohasi keskin qisqarish bosqichini boshdan kechirgan bo‘lsa-da, ichki turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy faollikni tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu jarayonda ijtimoiy turizm xizmatlari ichki turizm oqimlarini rag‘batlantiruvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ldi.

Ijtimoiy turizm faoliyatini tashkil etish jarayonlarini tahlil qilish ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuvlar ijtimoiy turizmni rivojlantirishda ishtirok etuvchi subyektlar, moliyalashtirish manbalari hamda tashkiliy mexanizmlar bilan farqlanadi. Tadqiqotlar asosida ijtimoiy turizm faoliyatini tashkil etishning bir necha asosiy yondashuvlari aniqlangan (2-jadval).

2-jadval ma’lumotlari ijtimoiy turizmni rivojlantirish jarayoni ko‘p qirrali tashkiliy mexanizmlarga asoslanishini ko‘rsatadi. Turli mamlakatlarda ushbu yondashuvlarning biri ustuvor bo‘lishi mumkin, biroq amaliyotda ular ko‘pincha o‘zaro uyg‘unlashgan holda qo‘llaniladi. Ayniqsa davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik ijtimoiy turizm xizmatlarini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

**2-jadval.**
**Ijtimoiy turizm faoliyatini tashkil etishga yondashuvlar<sup>1</sup>.**

Yondashuv turi	Mohiyati	Ishtirokchilar
Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga asoslangan yondashuv	Turizm xizmatlarining bir qismi davlat subsidiyalari orqali moliyalashtiriladi va aholining ijtimoiy guruhlari uchun sayohat imkoniyatlari kengaytiriladi.	Davlat organlari, mahalliy boshqaruv, turistik tashkilotlar, turistlar
Nodavlat tashkilotlar va xayriya fondlari yordamida tashkil etish	Ayrim turistlar toifasi uchun xizmat xarajatlari nodavlat fondlari yoki xayriya tashkilotlari tomonidan qoplanadi.	Nodavlat tashkilotlar, xayriya fondlari, turistik tashkilotlar
Tadbirkorlik asosidagi yondashuv	Turistik tashkilotlar xizmatlarni diversifikatsiya qilib, ayrim turistlar uchun arzonlashtirilgan turistik mahsulotlar taklif etadi.	Turistik kompaniyalar, infratuzilma subyektlari
Loyihaviy yondashuv	Ijtimoiy turizm faoliyati turli moliyaviy manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan maxsus loyihalar orqali amalga oshiriladi.	Davlat, nodavlat tashkilotlar, xayriya fondlari, turistik tashkilotlar
Innovatsion-texnologik yondashuv	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, onlayn xizmatlar va elektron marketing vositalari orqali ijtimoiy turizm rivojlantiriladi.	IT kompaniyalar, turistik tashkilotlar, moliyaviy subyektlar

Ijtimoiy turizm konsepsiyasining ilmiy talqinlari ham turli mualliflar tomonidan turlicha izohlangan. Ayrim tadqiqotchilar ijtimoiy turizmni kam ta‘minlangan aholi guruhlari uchun sayohat imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan tizim sifatida talqin qilgan bo‘lsa, boshqa olimlar uni barcha fuqarolar uchun teng turistik imkoniyatlarni ta‘minlash mexanizmi sifatida baholaydilar. Ushbu yondashuvlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida mualliflar tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalar taqqoslab tahlil qilindi (3-jadval).

**3-jadval.**
**Ijtimoiy turizmga yondashuvlarning taqqoslama tahlili<sup>2</sup>.**

Muallif	Obyekt	Subyekt	Moliyalashtirish manbai
V. Xanziker	Aniqlanmagan	Kam ta‘minlanganlar	Aniqlanmagan
Ijtimoiy turizm xalqaro tashkiloti	Ijtimoiy yo‘naltirilgan tashkilotlar	Kam ta‘minlanganlar	Aniqlanmagan
L. Minnaert, R. Maitland, G. Miller	Qabul qiluvchi tomon	Turizm iste‘molchilari	Aniqlanmagan
Yevropa Ittifoqi iqtisodiy va ijtimoiy qo‘mitasi	Aniqlanmagan	Barcha fuqarolar	Aniqlanmagan
V. Azar, V. Akishin, M. Birjakov	Davlat va ijtimoiy fondlar	Turli ijtimoiy guruhlar	Davlat va fondlar

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

Muallif	Obyekt	Subyekt	Moliyalashtirish manbai
J. Hoklend	Davlat	Barcha fuqarolar	Davlat
I. Serdobolskaya	Aniqlanmagan	Barcha fuqarolar	Aniqlanmagan
M. Almeyda	Davlat	Individ	Davlat

3-jadvalda ijtimoiy turizm konsepsiyasining talqini mualliflarning ilmiy yondashuviga qarab farqlanadi. Biroq aksariyat tadqiqotlarda ijtimoiy turizm aholining turli ijtimoiy guruhlari uchun turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan tizim sifatida talqin qilinadi.

Ilmiy manbalarda ijtimoiy turizmni rivojlantirishning istiqbolli yoʻnalishlari ham alohida koʻrib chiqiladi. Ushbu yoʻnalishlar turizm tizimining barqaror rivojlanishini taʼminlash hamda turistik xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, ijtimoiy turizmni rivojlantirish jarayonida davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, turizm subyektlari oʻrtasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, amalga oshirilgan tahlillar ijtimoiy turizm faoliyatini tashkil etish jarayoni turli tashkiliy-iqtisodiy yondashuvlar asosida shakllanishini koʻrsatadi. Davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, nodavlat sektor ishtiroki, tadbirkorlik faoliyati hamda innovatsion texnologiyalarni qoʻllash ijtimoiy turizmning samarali rivojlanishini taʼminlovchi asosiy omillar sifatida namoyon boʻladi. Ushbu yondashuvlarning uygʻunligi turizm tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qilib, aholining turistik xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻtkazilgan tahlillar ijtimoiy turizm faoliyati turizm tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib borayotganini koʻrsatadi. Globallashuv jarayonlari, turizm bozoridagi tarkibiy oʻzgarishlar hamda global inqirozlar turizm faoliyatini tashkil etish mexanizmlarini qayta koʻrib chiqishni talab qilmoqda. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi turizm sohasining tashqi omillarga yuqori darajada bogʻliqligini namoyon etib, ichki turizm va ijtimoiy turizm xizmatlarini rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytirdi. Mazkur sharoitda ijtimoiy turizm nafaqat ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning turistik xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi, balki turizm infratuzilmasining barqaror faoliyatini taʼminlashga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, ijtimoiy turizm faoliyatini tashkil etishda turli tashkiliy yondashuvlar mavjud boʻlib, ular davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashga asoslangan model, nodavlat tashkilotlari va xayriya fondlari ishtirokidagi model, tadbirkorlikka asoslangan yondashuv hamda loyihaviy va innovatsion mexanizmlarni oʻz ichiga oladi. Ushbu yondashuvlar oʻzaro uygʻunlashgan holda qoʻllanilganda ijtimoiy turizm xizmatlarining samaradorligi oshadi hamda turizm tizimining barqaror rivojlanishi taʼminlanadi.

Ilmiy tahlillar ijtimoiy turizmni rivojlantirishda davlat siyosatining muhim oʻrin tutishini koʻrsatadi. Davlat tomonidan yaratilgan meʼyoriy-huquqiy sharoit, moliyaviy



qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari hamda davlat-xususiy sheriklik tizimi ijtimoiy turizmni rivojlantirishning asosiy institutsional omillari hisoblanadi. Shu bilan birga, turizm tashkilotlari, nodavlat muassasalar hamda xususiy sektor vakillarining faol ishtiroki ijtimoiy turizm xizmatlarining kengayishiga va turizm bozorining diversifikatsiyalashuviga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, ijtimoiy turizmni rivojlantirish boʻyicha davlat siyosatini takomillashtirish hamda ushbu sohani qoʻllab-quvvatlovchi institutsional mexanizmlarni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bunda turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiruvchi subsidiya va kompensatsiya mexanizmlarini qoʻllash ijobiy natijalar berishi mumkin.

Ikkinchidan, ijtimoiy turizm faoliyatini rivojlantirishda davlat, nodavlat tashkilotlari va xususiy sektor oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Koʻp tomonlama hamkorlik ijtimoiy turizm loyihalarini samarali amalga oshirish hamda turizm infratuzilmasidan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Uchinchidan, ijtimoiy turizm xizmatlarini kengaytirishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, onlayn bronlash tizimlari va elektron marketing vositalaridan foydalanish turizm xizmatlarining qulayligini oshirib, turistik xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Toʻrtinchidan, ijtimoiy turizmni rivojlantirish jarayonida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish ham muhim hisoblanadi. Turizm mahsulotlarini turli ijtimoiy guruhlar ehtiyojlariga moslashtirish turizm xizmatlariga boʻlgan talabni oshirish hamda ichki turizm oqimlarini ragʻbatlantirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy turizm faoliyatini rivojlantirish turizm tizimining barqaror rivojlanishini taʼminlash bilan birga, aholining turistik xizmatlardan teng foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bois, ijtimoiy turizmni tashkil etish jarayonlarini takomillashtirish turizm sohasining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon boʻladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Minnaert, L., Maitland, R., & Miller, G. (2011). What is social tourism? Current Issues in Tourism, 14(5), 403-415. <https://doi.org/10.1080/13683500.2011.568051>

2. Minnaert, L. (2014). Social tourism participation: The role of tourism in the experience of poverty. Tourism Management, 45, 315-325. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2014.05.002>

3. McCabe, S., Minnaert, L., & Diekmann, A. (2012). Social tourism in Europe: Theory and practice. Channel View Publications. <https://doi.org/10.21832/9781845413275>

4. Diekmann, A., & McCabe, S. (2013). Systems of social tourism in the European Union: A critical review. Current Issues in Tourism, 16(5), 417-430. <https://doi.org/10.1080/13683500.2012.720260>

5. Hall, C. M., & Page, S. J. (2014). The geography of tourism and recreation: Environment, place and space (4th ed.). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315720070>
6. Sharpley, R. (2015). Tourism and development: Concepts and issues (2nd ed.). Channel View Publications. <https://doi.org/10.21832/9781845414746>
7. Richards, G. (2018). Cultural tourism: A review of recent research and trends. *Journal of Hospitality and Tourism Management*, 36, 12-21. <https://doi.org/10.1016/j.jhtm.2018.03.005>
8. McCabe, S. (2009). Who needs a holiday? Evaluating social tourism. *Annals of Tourism Research*, 36(4), 667-688. <https://doi.org/10.1016/j.annals.2009.06.005>
9. UNWTO. (2019). Global report on inclusive tourism destinations. World Tourism Organization. <https://doi.org/10.18111/9789284420372>
10. Yeoman, I., & McMahon-Beattie, U. (2016). The future of tourism. *Tourism Management Perspectives*, 19, 95-98. <https://doi.org/10.1016/j.tmp.2016.03.006>



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, aprel, 4-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**